

**MUTAXASSISLIK FANLARINI O`QITISHDA INNOVATSION  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING  
SAMARADORLIGI BLUM TAKSONOMIYASI MISOLIDA**

*Umarjonova Nodira Abduxamid qizi*

*Stajor o`qituvchi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Texnologik ta’lim metodikasi” kafedrası*

*Toshkent shahri nodira5655@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o`qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi Blum taksonomiyasi misolida ko`rsatilishi hamda uning ta’lim jarayoniga tadbiqu haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Blum taksonomiyasi, mutaxassislik fanlari, innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta’lim.

Ta’lim jarayoni ishtirokchilari, ya’ni o`qituvchi va o`quvchilarning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko`rinishi texnologik ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda ta’lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o`zlashtirish yo`llari ifoda etiladi, o`qituvchi va o`quvchilarning o`zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, birinchidan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo`lsa, ikkinchidan, ta’lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Bendjamin Blum (1913-1999) Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi-bilish faoliyati darajalariga asoslangan o`quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta’lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O`quv maqsadlari taksonomiyasi o`quvchilar o`zlashtirishining ma’lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o`zaro bog`liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi. Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

B.Blum rahbarligida Amerikalik pedagog-olimlar tomonidan ishlab chiqilgan o`quv maqsadlari taksonomiyasi butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan. Shu bilan birga G`arbda D.Gilford va R.Gagne, Rossiyada A.Ya.Galperin va A.M.Matyushkin, Polshada esa Ch.S.Nosal va M.Obara taksonomiyalari ham ko`pchilikning alohida e`tiboriga sazovor bo`lgan. B.Blum yaratgan o`quv maqsadlari taksonomiyasi bilishga

oid sohaga tegishlidir. Unda bilim olish jarayoni: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash kabi oltita toifalarga ajratib ko'rsatiladi. Bu toifalarning har biri uchun alohida bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan. Bilim olish jarayoni darajalarining saralanish va joylashtirish ketma- ketligini kuzatib, taksonomiya yaratuvchilari intellektual faoliyatning barcha toifalarini to'laroq va aniqroq qamrab olishga intilganliklarini anglash mumkin. Bu esa taksonomiya o'quv maqsadlarining faqat axborot berishga asoslangan an'anaviy usulda belgilashga nisbatan takomillashgan, ilg'or usul ekanligidan dalolat beradi.

O'quv fani maqsadlarini bu taksonomiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda bajariladi. Birinchi bosqichda fan o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. Qismlarga ajratib aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo'limlari, qatorda esa talabanning bu bo'limlarni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari joylashtiriladi. O'quv maqsadlarini to'la-to'kis aniqlanadigan, o'quv jarayonini esa takrorlanuvchan bo'lishi uchun, bu maqsadlarga erishish mezonini yaratish zarurati tug'iladi. Boshqacha aytganda, o'quv maqsadlarini shunday ifodalash kerakki, unga erishganlik haqida fikr yuritish mumkin bo'lsin. Natijasini qat'iy va aniq o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari indentifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlari (lot. “identifico” – o'xshatmoq, solishtirmoq, taqqoslamoq) deb ataladi. Har bir bunday o'quv maqsadlari bo'yicha nazorat (test) topshiriqlari tuziladi. Identifikatsiyalanuvchi maqsadlarga erishilganlik haqida talabanning faqat tashqi ifodalangan faoliyati va uning mahsuli (javobi, masalani yechishi, topshiriqni bajarishi, texnologik jarayonning kechish ketma-ketligini aniqlashi, muolajani to'g'ri amalga oshirishi) bilangina aniq hukm chiqariladi. O'quv natijalarini indentifikatsiyalashda o'qituvchi talabanning tashqi ifodalangan harakatining belgilarini ifodalashga asosiy e'tiborni qaratadi. Demak, o'quv natijalari sezilarli darajada soddalashtirilib yuborilishi mumkin va bunga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. So'nggi yillarda pedagog-olimlar tomonidan B.Blum taksonomiyasiga o'zgartirish kiritildi, ya'ni tahlil va sintez toifasi umumlashtirilib, so'nggi bosqich sifatida yaratish toifasi kiritildi. Bu yangilik ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, namoyon qilish, yaratuvchanlik sifatlarini kuchaytirish ehtiyoji dolzarbligini bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonida, ya'ni mashg'ulotlarni bayon etishda o'quv maqsadlarini kompleks ishlashini ta'minlovchi texnologiyalardan foydalanish natijasida samaradorlik koeffitsientining yuqori darajasi qayd etiladi. Ta'lim oluvchilarning “Blum” taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon

qila olishi, ularga ta’rif berishi, ma’lumotlarni qayta ishlashlari, o’z fikrini bayon qilishi, obyekt yoki voqeaning o’ziga xos xususiyatlarini ajratib ko’rsatishi kerak bo’ladi. Aynan shu jarayonda talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga erishilishini ko’rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarori;
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyul “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-sonli qarori;
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi 2020-yil 23-sentabr O’RQ-637-sonli qonuni;
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4884-sonli qarori;
5. O.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” T-2006;
6. N.N.Azizxo’jayeva “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T-2006;
7. R.A.Mavlanova, M.Arabova, G’.Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T-2008;
8. T.Atamuratova, X.Ergasheva, M.Qurbonov “Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi” T-2008;
9. R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T-2008;
10. B.Ziyomuhammadov, M.Tojiyev “Pedagogik texnologiya-Zamonaviy o’zbek milliy modeli” T-2009;
11. S.A.Madyarova va boshq. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. T-2009;
12. H.T.Omonov, N.X.Xo’jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T-2009;
13. N.X.Avliyakov, N.N.Musaeva “Pedagogik texnologiya” T-2012;
14. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo’ysinov “Mehnat ta’limi o’qitish metodikasi, kasb tanlashga yo’llash” T-2014;
15. M.Usmanboyeva, Sh.Aripova, I.Rejemetova, D.Mo’minova “Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish” T-2019;
16. Z.F.Sharopova “Ta’lim texnologiyalari”, “Navro’z”, T-2019;
17. A.I.Avazboyev, Ya.U.Ismadiyarov, G’.O’.Qodirov “Kasbiy pedegogika”, “Nodirabegim nashriyoti”, T-2020;
18. G.M.Anorqulova “Ta’lim texnologiyalari” T-2021;

19. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo`rayev “Texnologiya fanini o`qitish metodikasi” Buxoro-2021;
20. К.В.Дрозд Актуальные вопросы Педагогика и образования Учебник и Практикум 2-е издание Москва-Юрайт-2022;
21. Sh.S.Sharipov, Sh.S.Abduraimov, L.R.Zaripov, B.E.Qodirov “Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi” T-2022;
22. B.Qurbonov, R.G.Isyanov, G.B.Kurbanova, A.I.Avazbayev “Texnologiya fanini o`qitish metodikasi” T-2022;
23. O.A.Qo`ysinov, Sh.S.Abduraimov, L.R.Zaripov, B.E.Qodirov “Texnologiya ta`limi metodikasi” Termiz-2022.
24. Mambekova Shaxnoza Kudiyarbekovna. (2024). TA'LIM OLIISH MUHITINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TADQIQOTLARNING O`RNI . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(6), 184–186. Retrieved from <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5888>
25. Umarjonova , N. (2023). ELEKTRON O`QUV-USLUBIY MAJMUALAR-TA'LIM MUASSASASI AXBOROT O`QUV RESURSLARINING ELEMENTI SIFATIDA. *Ilm-Fan Va ta'lim*, 1(2). извлечено от <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/54>